

SAMARQAND KASHTALARI BA'ZI NAQSHLARINING KELIB CHIQISHI TARIXI



Gulnora Abilkasimovna Maxkamova
MRDI mustaqil izlanuvchisi

Email: maxkamovagulnora83gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-01-07>

Annotatsiya: Mazkur maqola “XX-XXI asrlar Samarqand kashtachiligidagi badiiy jarayonlar” mavzusidagi izlanishlar tarkibidan yozilgan. Unda Samarqand kashtalaridagi naqshlarning kelib chiqishini etnografiya manbalari tahlili asosida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: “Bibi-seshanba”, “bibi-mushkulkusho”, “qalamkash”, “oq fotiha”, “bushim taft”, “guli surxi”, chok-do‘zon”, “kaltacha po‘shon”, “xishtak”, “ro‘binon”, “sallabandon”, “nonshikanon”, “fotiha”.

Аннотация: Статья является частью исследовательского работа на тему “Художественные процессы в самаркандской вышивке XX–XXI вв.”. В статье рассматривается происхождение узоров самаркандской вышивки на основе анализа этнографических источников.

Ключевые слова: “Бибисешанба”, “бибимушкулкушо”, “каламкаш”, “ок фотиха”, “бушим тафт”, “гули сурхи”, чок-дўзон”, “калтача пушон”, “хисhtак”, “рубинон”, “саллабандон”, “ноншиканон”, “фотиха”.

Abstract: The article is part of a research work on the topic “Artistic processes in Samarkand embroidery of the 20th–21st centuries”. The article examines the origin of Samarkand embroidery patterns based on an analysis of ethnographic sources.

Keywords: “Bibi-seshanba”, “bibi-mushkulkusho”, “qalamkash”, “oq fotiha”, “bushim taft”, “guli surxi”, chok-do‘zon”, “kaltacha po‘shon”, “xishtak”, “ro‘binon”, “sallabandon”, “nonshikanon”, “fotiha”.

Ayni paytda jahonda xalq hunarmandchiligiga o‘zida madaniy merosini, estetik qadriyatlarining zamonaviy talqinini saqlovchi omil sifatida qaralmoqda. O‘zbek amaliy –bezak san’ati O‘rta Osiyo xalqi an’alarini, badiiy mahoratini va timsolini aks ettiruvchi noyob madaniy hodisa sifatida yuqori baholanmoqda. Xalqaro UNESCO tashkiloti tomonidan ham bu masalaga “Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish” sifatida e’tibor berilgan bo‘lib, uning ro‘yxatida o‘zbek hunarmandchiligi o‘z o‘rniga ega. [1]

Bugun Jahonda madaniy merosni global darajada o‘rganish va saqlashga, muzeylarda amaliy san’at asarlarini targ‘ib qilishga, ulardagi naqsh va uslublar tahliliga, rivojlanib borayotgan madaniyat ta’siri ostida an’anaviy hunarmandchilikning o‘ziga xosligini, mahalliy maktab an’alarini saqlashga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga jahonda mahalliy hunarmandchilik an’alarini o‘rganish va ularga oid bilimlarni kelajak avlodlarga yetkazish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Ayni turmush tarzi o‘zgarib borayotgan sharoitda hunarmandchilik san’ati yangi imkoniyatlar bilan birga muammolarga ham duch kelmoqda va o‘ziga xos tadqiqotlarni talab qilmoqda.

“Jahon iqtisodiyoti shiddat bilan globballashayotgan va madaniy integratsiya ro‘y berayotgan hozirgi sharoitda amaliy-bezak san’sti xalq tarixiy xotirasini saqlaydigan omil sifatida muhim rol o‘ynagan...Zamonaviy jahon san’atshunoslik ilmida an’anaviy amaliy-bezak san’sti rivojlanishining tarixiy bisqichlarini aniqlash, hunarmandchilikning texnologik uslublarini va badiiy jihatlarini chuqur tadqiq etish tobora dolzarblik kasb etmoqda”[2]

Kashtachilik san'ati buyumlari xaridorlari asosa mahalliy halq bo'lib, kashtalar kundalik ishlatadigan buyumlari bo'lgan. Shu bilan birga urf-odatlarini, to'y va motam marosimlari bilan bog'liq xolda rivojlangan. Ulardagi buyumlar vazifasi, naqshlar ma'nosi va kelib chiqishini o'rganish yuzasidan biz bu masalaga etnografik, etnologik yondashishga harakat qildik. Samarqand etnografiyasi haqida asosan O.A.Suxareva izlanishlar olib borgan va izlanishlarimiz uchun muhim ma'lumotlarni yoritgan.

O.A.Suxareva maqolasida Samarqandliklarda islom diniga aloqasi yoq' bo'lgan "bibiseshanba", "bibimushkulkusho" ayollar tadbirini izohlaydi. Olima buni tadbirni paxta o'simligini ekish va uni qayta ishlash va matosozlik bilan bog'liq, uning paydo bo'lishi ancha oldin bo'lganligi haqida ma'lumotlar beradi. [3, 172]

Olimaning navatdagi maqolasida ham nosqovoq tayyorlashda ma'lum bo'lgan udumlar haqida ham eslab o'tilgan. [4, 119] Bu "ustoz-shogird" an'anasiga asoslangan amaliy-bezak san'atning barcha turlariga xosdir. hunarmandchilik turi bo'lgan kashtachilikka ham aloqador bo'lgan. Kashta naqshlarini tasvirlovchilar "qalamkash"lar deb atalgan va ular bu kasbni o'rganganlaridan keyin ustozidan "oq fotiha" olishi shart bo'lgan.[5, 32] U monografiyasida kashtalar Samarqandning urf-odatlarini bilan bo'g'liqlik tomonlarini Samarqandning kundalik hayotida kashtalarning o'rni bilan ko'rib chiqqan. Samarqand bezakli to'y -marosimlarida muhim bo'lgani izohlangan.[6, 20]

Dastlab so'zana qiz va yigitning ilk uchrashadigan uyi ichki devorlari (qiz bolaning uyida ko'rishgan) kashtalar bilan bezatilgan va bu asosan musulmoncha to'ylarda yuz bergan. To'y kuni kelinni kuyovning uyiga kechki payt, mayoqlar yoqib olib ketishgan va uning orqasidan yaqinlari kashtali seplarni olib, kelinning yangi uyini (nikox kechsi uchun mo'ljallangan xonani) bezatganlar. Samarqandda hozir ham bu udum saqlangan. Faqat endi sup tarkibida kashtalar o'rni bezakli liboslar egalladi.

Chizmakashlar o'z xizmatlari uchun albatta xaq olishlari shart bo'lgan, 1890 yilda tug'ilgan Kaftarxona hududidan bo'lgan chizmakash M. Muqumova chizmakashlikni bajarishda oldin ustozidan "oq fotiha" olishi kerak edi. Bu jonliq so'ymasdan amalga oshiriladigan marosim "bushim taft" deb atalgan. Chizmakashlik ham avloddan-avlodga o'tib kelgan. Kaftarxonalik yana bir chizmakash Melikoy Karimova qiz bola paytida chizmalarni chizgani, onasi olamdan o'tib qolgani, fotiha olishga ulgurmay qolganinini izohlaydi. Turmushga chiqib, bu hunarni to'xtatadi. Shunda onasi tushiga kirib, rozilik bergach, u yana chizmakashlik qilgan. Ba'zan chizmakashlarni ulardan oldin o'tgan pirlar jazolagan ham. M.Muqumovaning aytishicha ularga qo'shni bo'lgan qalamkash Xikmat-oyni "ruhlar" jazolagan. Ona qalamkash tirik paytida qizining ham bu kasb bilan shug'ullanishi mumkin emas. Qachonki ona bu kasbni davom ettirishiga layoqatsiz bo'lib qolganida yoki olamdan o'tganida qiziga fotiha berishi va qizi davom ettirishi mumkin bo'lgan. Xikmatoyning onasi keksayib, qiziga fotiha bergan va Xikmatoy onasiga pullaridan sovg'a berib turgan. Chizmakashlik onadan qizga, buvidan nevaraga meros bo'lib, davom etishi an'ana hisoblangan. Agar qizi davom ettirishni xohlamasa, unda kelini yoki nevarasiga buyurilgan. Agar xonadonda ko'pchilik chizmakash bo'lsa va ular fotiha olmoqchi bo'lsa, ularning hammasiga birvarakayga "fotiha olish" marosimi o'tkazilgan. Ular "Mening qo'lim emas, (usozning ismini aytib) uning qo'li"- deb ish boshlaganda ruhlar yordamga keladi deyishgan". Xikmatoy o'z qiziga fotiha berar ekan "Qasamimni Muqaddamoyga berdim, mendan keyin hunarim sohibasi bo'l, omin Allohu-Akbar. Kamarbastam Shohi Mardon nomi bilan bu ishni bajarib, qayg'uli ko'ngillarni shod et" deb fotiha bergan.[7.41]O'rta Osiyoda hunarmandchiligida "Kamar baste" atamasi ma'lum bir mahorat darajasiga yetgan hunarmandlarni ham ifodalash uchun ishlatilgan. Xikmatoy qizining yetuk chizmakash bo'lishini istagan. [8]

Shaxsiy ekspeditsiyamizda Chelaklik Qo'ysin Tursunovaning aytishicha chizmakashlikda albatta ustozidan oq fotiha olib, keyin ish boshlash kerak. Aks holda biror shikast yetishi mumkin. O'zi yoshligida chizmakashlikni Samarqandning Motrid qishlog'idan katta chizmakashdan (ustozini ismini eslolmadi) o'rganib, mustaqil ravishda chizganida, ikki qo'li bilagidan mayda toshma chiqib, xarakat qilolmay qolganinini, dori -darmondan yaxshi bo'lmagani va oxir- oqibat ustozidan fotiha olib, (jarayonda ustozini duo qilib, fotiha bergan va sutli osh qilib, kayvonilar

ichishgan, ustoz bitta ruchka bergan, qo'lidagi yaralarni silab qo'ygan) keyin tuzalib ketganini ta'kidlaydi. Ustoz qizil buyoq bilan umuman chizmasiligini tayinlagan. [9]

Bu borada N.A.Kislyakov "surxi"- qizil rang epiteti qabristonda o'tkaziladigan qizil gular bayrami bilan bog'liqligini aytib o'tgan.[10] O.A.Suxareva o'zining "Празднества цветов у равных таджиков (конец XIX – XX начало вв)" maqolasida "guli surx" bayrami Samarqandda qabristonda o'tkazib kelingani haqida ma'lumot bergan. Qizil lola Xusayinning qoni ekanligini ta'kidlaydi. (Xusayin haqida to'liq ma'lumot). [11] Bugungi kunda Samarqandda "Lolazor" mahallasi nomi ham shundan qolganini ta'kidlaydi. [12,31]Muzeydagi eskizlar ham to'q ko'k, qora rang bilan chizilgan.

Samarqandda qizni uzatayotganda uning buyumlarini tikish uchun to'ydan oldin "chok-do'zon" marosimi o'tkazilgani haqida, bunda oilaning eng yaqin xotin-qizlari, kelinchaklari, qo'shni ayollari kelib, kelinchakning barcha tikish buyumlarini tikishga yordamlashgan. Bunda uy egasi mehmonlarni katta qozonda osh damlab, mehmon qilgan. Kashtado'z O' Umurboevaning aytishicha bu urf XIX-asrning oxiriga kelib o'tkazilmagan.[13,39]

Yana bir tarixiy-etnografik ocherkdagi O.A.Suxarevaning "Среднеазиатское искусство вышивки" maqolasida kashtalarning davrlarini aniqlash birmuncha qiyinligini, sababi ular onalari tomonidan, buvilari tomonidan turli davrlarda tayyorlanganligi va bu udum "tabarruk" -degan niyatni tilaganliklarini izohlaydi.[14]

Samarqandda yosh kelin-kuyov uzoq muddat bezalgan uyda yashashgan. Ko'chmanchi xalqlarda yoz boshlanishi va bog'ga ketishda kashtalar olinib, sandiqqa qo'yilgan. Bu xolat "taxkanon deb nomlangan va qaytib kelgach, uning bir-ikkitasi ilingan. XIX-asr oxiri va XX-asr boshida kamtarona uzatilgan qizlarning sepida 3-4 juftda joynamoz, bolinpo'sh, ro'yo va joynamoz bor edi. Ba'zi oilalarda esa 12 juftgacha bunday buyumlar qilingan.[15,31-33]

Xozirda bu ko'chmanchi xalq o'troqlashgan. Yosh oilalar farzandli bol'sa ham, ikki yil muddatda xonada kashta ilingan holda saqlangan.

Navbatdagi adabiyot ham O.A.Suxareva tomonidan yozilgan bo'lib, u kashta naqshlariga bevosita aloqadordir. "Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков" maqolasida, Samarqand mahalliy xalqi orasidagi dev, jin, alvatsi, shamanlar haqida xalqning tushunchasi, ularning o'tkazadigan tadbirlari haqida keng ma'lumot berilgan.[16, 6]Samarqand kashtalaridagi qalampir va "tig"li naqshlar (teg'cha) yovuz ruhlardan himoya qiladi -degan tushuncha bo'lgan va u mazkur tushuncha bilan bog'liq.

Xo'ja Ahror Valiy qoshlog'ida yashovchi odamlardan yozib olingan ba'zi ma'lumotlar tadqiqotimiz uchun muhimdir. Jumaladan, bir odam mitti shaytonni ushlab olgan va u "meni qo'yvor, kitobim va tangamni beraman" deydi. Boshingga kulfat tushganida tangani ishlatsang, o'zingga qaytib keladi, ammo qizil qalampir sotadigan joyga borilsa jinlar unday joydan qorqishini aytanligi ma'lum. [17,40] Kashtalarda qalampirning tasvirlanishi ham shundan bo'lsa kerak.

A.K.Pisarchikning "Материалы к истории одежды таджиков Нурата. Старинные женские платья и головные уборы" maqolasida uchburchak ko'rinishdagi Nurota ayollar ko'ylaklari O'zbekistonning boshqa hududlaridan farq qilishini, bunda ayollarning ko'ylagi qo'ltig'iga to'rtburchak "xishtak" qo'yilishi, bu ularning harakatlanishiga qulayligini aytadi. XIX-asrning 40-yillarida turmushga chiqqan nurotalik qariyaning aytishicha, buning sirli ma'nosi bor. Oq matoda- bu xishtak o'z rangida bo'lishi kerakligi va boshqa rangli kiyimda esa bu turli rangda bo'lishi mumkin. Bu "serfarzandlikni ta'minlaydi" — degan tushunchalarni izohlaydi. [18,115]Nurata ayollar bosh kiyimi "lachak" to'y kuni qizning boshiga kiyilishi va to'ydan keying kun- "ro'binon"da bu lachak o'ralishini izohlaydi. [19,121] Bu tadbir va samarqandlik kelinlarning libosi haqida O.A.Suxareva esa o'zining "История среднеазиатского костюма" (2-я половина XIX- начало XX- века Самарканд) monografiyasida "to'yning ikkinchi kunida kelinchak "ro'binon" tadbirida to'rli paranji bilan o'ralmagan edi, boshida yuqori sifatli mato- "kunda"dan qilingan do'ppi — "qalpoq" kiyganligini izohlaydi.[20,148]

Mazkur kitobda ayollar libosi "mursak" bilan bo'g'liq, uni ilk kiygan kunini "kaltachapo'shon" tadbiri o'tkazilganligini, XX asrning boshlarida yo'qolib ketganligini izohlaydi. [21,39] Bu tadbir Samarqandda qizlarning 12-13 yoshlarida o'tkazilib, ularning

balogʻatga yetganliklarini bildirgan. Taomlar pishirilgan, ziyofat qilinib, qimmatbaho matodan mursak tikilgan va kiydirilgan. Bunda hamma qizni tabriklab, yaxshi tilaklar tilaganlar. Ustiga mursak va boshiga oq jun roʻmol oʻrnatishgan. Buning maʼnosi “qarib, sochiga oq tushib, uzoq-umr koʻrsin”-degan niyatda qilingan. Badavlat oillalarda keyinchalik ham bu tadbir oʻtkazilgan. Masalan 1897-yilda sunnat toʻyidan soʻng, 12 yoshli qizchaga atab ham bu tadbirni oʻtkazishgan. Samarqandliklarda qiz bolaga alohida munosabat va ehtirom, eʼtibor boʻlgan. Munaqqid “mursak” samarqandlik ayollarning asosiy kiyimi boʻlganini, ayol kishi olamdan oʻtsa jasadni “yuvuvchi” lariga albatta uning mursagi berilishi shartligini izohlaydi. Mazkur monografiyada yana paranjini Samarqandda “faranji” deyilishi va uning chochvonini esa “chashmband” deyilishi, chachvonning ustida oq mato tashlagani -bu baxt keltirishi uchun qilinganini izohlaydi. [22,44]


Kashtalardagi lola naqshlari ham “bahor darakchisi” sifatida chizilgan. O.A.Suxareva bir guruh olimlar izlanishini tahlil qilar ekan, N.P.Lobachevaning Samarqandda “sayli guli surx” bayrami haqida yozganini eslab oʻtadi. “Ulugʻbek rasadxonasidan uncha uzoq boʻlmagan shaxar ortidagi halqlarda “sayli guli surx” bayrami bor. Bunda yoshlar shaxar chekkasida chiqishib, qizil lol ava qizgʻaldoqlarni teigan, bayram markazi “Choʻpon ota” mozori boʻlgan. Janubiy hudud -Daragʻom choʻlida bu saqlanmagan. Samarqandda “Lolazor” nomli mahallaning borligi, qadimda bu bayram boʻlgan deb izohlaydi. [23,33] Shuningdek muallif bu bayramni Xorazm, Oʻratepa, Buxoroda, Toshkent, Fargʻonda ham oʻtkazilgan koʻrinishlarini koʻrib chiqadi. Navbahor va Navroʻz bayrami nomlari toponimi sifatida boʻlganligini taʼkldaydi, u musulmon dinigacha boʻlgan va rivojlangan -deb izoh beradi.

Navbatdagi ilmiy manbaa A. Xonhujajeva “Традиционные особенности свадебных торжеств таджиков Самарканда” maqolasida Samarqand shaxar toʻylari haqida qiziqarli maʼmumotlarni bergan. “Nonshikanon” — non sindirish, “fotiha” — fotiha toʻyi, “parchaburron”-mato qirgʻish, “andozbardor” — toʻy uchun narsalar olish, kabilar birinchi bosqichga kiritgan. [24]

“Fotiha” toʻyi marosimi boʻlib, uning tarkibida “non shikanon” tadbiri oʻtkaziladi. Kelin tomonga 4 yoki 6 dona patnis bezatib, olib kelishadi va unda bu tadbir uchun maxsus “guli-non” olinadi. Patir va kulchalardan iborat, yuzi rag-barang gular va naqshlar bilan bezaladi. Bunda ramziy maʼno boʻlib, yoshlar har bir topgan nonini birga baham koʻrib, ahil yashashlarini istashdir.

Kelin uyida chimildiq va “chok” (uy shiftiga ip tortilgan) qilingan va chokda kelinning hamma sepi ilingan boʻladi. “Nikoh toʻyi” oʻtgach, kelin uchun bezatilgan uyiga kirishida dugona va yangalari qurshovida boshiga bolinpoʻsh tutganicha kirishadi. Bolinpoʻsh baʼzan qoʻl kashtasida, baʼzan mashinkada urilgan popopda tayyorlanadi.

Kashtachilik xalq ehityoji bilan bogʻliq rivojlangan olimlarimiz fikrlaridan bilish mumkinki, Samarqand kashtachiligida ustoz-shogird anʼanasida qatʼiy qoyidalar boʻlgan. Ular bilan bogʻliq “chokdoʻzon”, “kaltachapoʻshon”, “roʻbinon”, “taxkanon”, “bushim tafi” (oq fotiha berish) kabi tadbirlar oʻtkazilgan. Bu tadbirlarda kashta ramziy naqshlarini izohlovchi koʻz tegmasin, uzoq umr, goʻzal hayot tilash istaklari mujassam. Kashtalardagi bezaklar “koʻz tegishi” ni oldini oluvchi tushunchalar bilan bogʻliq rivojlansa, gul-chehcaklar Samarqandda bahorgi “boychehak”, “qizil guli surx” bayramlari bilan bogʻliq. Gul bilan ataluvchi qizlar ismi boʻgʻliqdir. Kashtalarda baʼzi naqshlar haql urf-odatlarida, tushunchalarida yashab kelgan. Ijtimoiy –siyosiy oʻzgarishlar sabab ham “poyezd”, “aeroplan”, “elektr choynik” kabi naqshlar chizmakashlar tomonidan aks ettirilgan.



Samarqand kashtalarida
“Guli anor-anor guli” yoki
“olma-anor”-anor
mevasi. Q. Roziqova. 1938-y



Samarqand kashtasida qalampir ramziy
naqshi. O'. Umurboyeva 1935 yil



Samarqand kashtasi
joynamozda “otash-aroba”-
poyezd naqshi, XX asr boshi.



Samarqand
kashtasi, fragment.
№5386-15. "choynik
" nusxa naqshi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://ich.unesco.org/en/what-is-intangible-heritage-00003>
2. [www.kun.uz.news](http://www.kun.uz/news).
3. Сухарева О.А. К вопросу о культу мусульманских святы в Средней Азии. Труды института истории и археологии: материал по археологии и этнографии Узбекистана. II- том, Т-1950, -172 ст
4. К истории художественная ремесла Узбекистаная: производство табакерок. Сборник музея антропологии и этнографии. XIV-том Москва. 1957 г.-С.119-140 ст
5. Sukhareva O.A. Suzani. Central Asian decorative embroidery. —Tashkent, 2011.

6. Сухарева О.А. Сузани. Среднеазиатская декоративная вышивка. 2006 г, -С.20-225 ст
7. Сухарева О.А. Сузани. Среднеазиатская декоративная вышивка. 2006 г, -С.41-225 ст
8. Атаджанова. Д// Ремесленный обряд «камар басте» (посвящение ученика в мастера) в Средней Азии (zor.uz/narodnie-ramesla/remeslenniy-obryad-kamar-baste-posvyashenie-uchenika-v-mastera-v-sredney-azii/).14.07.2019
9. Suhbat sanasi 2023 yil, mart
10. Кисляков Н. А. Некоторые иранские поверья и праздники в описании западно европейских путешественников XVII в.— М, 1973.
11. <https://uz..>
12. wikipedia.org/wiki/Husayn_ibn_Ali
13. Сухарева О. А. //Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. Историко-этнографические очерки. –Москва: Наука, 1936 г.-С31-45.
14. Сухарева О.А. Сузани. Среднеазиатская декоративная вышивка. 2006 г, -С.39-225 ст
15. Сухарева О.А. Среднеазиатское искусство вышивки. К. В. Чистов (главный редактор),Советская этнография.журнал. М:Наука, -1981/3 г
16. Сухарева. О.А. Ходжентский сузани.//Этнография Таджикистана.Душанбе:Дониш,1985 г.-С.31-33 ст.
17. Сухарева. О.А Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков. Отв.ред.Снесаров Г.П.,Басилев Б.Н. // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. -М 1975 г, -С.6-346 ст.
18. Г.П.Снесаров, Б.Н.Басилев “Домусульманские верования и обряды в Средней Азии”.1975 г. М, -С.40-346 ст.
19. Писарчик А. К. Материалы к истории одежды таджиков Нурата.
20. Старинные женские платья и головные уборы. Отв. ред Сухарева О.А. //Костюм народов Средней Азии. Историко-этнографические очерки. Москва, 1979, -С.115-247 ст.
21. Писарчик А. К. Материалы к истории одежды таджиков Нурата.
22. Старинные женские платья и головные уборы”. отв. ред Сухарева О.А.Костюм народов Средней Азии. Историко-этнографические очерки. -Москва, 1979. –С.121 -247 ст
23. Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма. (2-я половина XIX- начало XX-веке Самарканд) –М: Наука,1982. 148 ст. –С.17
24. Сухарева О.А. Среднеазиатское искусство вышивки. К. В. Чистов (главный редактор),Советская этнография.журнал.- М:Наука, -1981.-С.39
25. Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма (2-я половина XIX- начало XX-веке Самарканд) М: Наука, 1982. –С.44-148 ст
26. В.Н.Басилов. Отв редактор Древней обряды и верование и культы народов Средней Азии.Историко-этнографический очерк.-М:Наука-1986 г, -С.33
27. Хонхужаева А. Традиционные особенности свадебных торжеств таджиков Самарканда. Илмий ахборотлари. №2, 2018 йил
28. Urinboev, S., & Barnayeva, S. (2023). Principles of Development of Fine Arts in Central Asia.
29. Maxkamova, G. A. (2024). O ‘ZBEKISTON MADANIYATI TARIXI DAVLAT MUZEYIDAGI KASHTA KOLLEKTSIYASINI YARATILISHI VA ILMIY-BADIIY AHAMIYATI. Oriental Art and Culture, 5(3), 285-295.